



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## TARJIMASHUNOSLIK: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ilmiy rahbar: **Saydamatov Ikromjon Nazirovich**  
O'zDJTU Ingliz filologiyasi fakulteti katta o'qituvchisi  
[ikromjonsaydamatov@gmail.com](mailto:ikromjonsaydamatov@gmail.com)

**Abdullayeva Munisaxon,**  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz tili filologiya fakulteti 1-kurs talabasi  
[abdullayevamunisa2006@gmail.com](mailto:abdullayevamunisa2006@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183903>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy tafovutlar tahlil qilinadi. Shuningdek, lingvistik farqlar, semantik, grammatik va fonetik tafovutlar va ularni tarjimadagi ta'siri ko'rib chiqiladi. Tarjimonning lingvistik va madaniy tafovutlarni aniqlash va ularni bartaraf etishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Maqola, tarjimonlarning ikki madaniyat o'rtasida to'g'ri muloqot o'rnatish va madaniy qiymatlarni aks ettirishdagi samarali yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan. Bu o'rganish tarjima sifatini oshirish va madaniyatlararo tushunishni kuchaytirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Tarjima jarayoni, lingvistik tafovutlar, madaniy tafovutlar, interkultural tarjima, madaniyatlararo aloqalar, semantik tafovutlar, grammatik tafovutlar, fonetik tafovutlar, tarjimashunoslik, madaniy moslashuv.

**Annotation:** This article analyzes the linguistic and cultural differences that arise during the translation process. It also examines linguistic differences, including semantic, grammatical, and phonetic variations, and their impact on translation. The role of the translator in identifying and addressing linguistic and cultural differences is particularly emphasized. The article focuses on studying effective approaches for translators to establish proper communication between two cultures and reflect cultural values. This study helps improve translation quality and strengthen intercultural understanding.

**Keywords:** Translation process, linguistic differences, cultural differences, intercultural translation, intercultural communication, semantic differences, grammatical differences, phonetic differences, translation studies, cultural adaptation.

**Аннотация:** В данной статье анализируются лингвистические и культурные различия, возникающие в процессе перевода. Также рассматриваются лингвистические различия, включая семантические, грамматические и фонетические различия, а также их влияние на перевод. Особое внимание уделяется роли переводчика в выявлении и устранении лингвистических и культурных различий. Статья направлена на изучение эффективных подходов для переводчиков, позволяющих установить правильное общение между двумя культурами и отразить культурные ценности. Это исследование способствует улучшению качества перевода и укреплению межкультурного понимания.

**Ключевые слова:** Процесс перевода, лингвистические различия, культурные различия, межкультурный перевод, межкультурная коммуникация, семантические различия, грамматические различия, фонетические различия, теоретические исследования перевода, культурная адаптация.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Tarjima jarayoni nafaqat tilning grammatik tuzilmasi, balki madaniyatlararo aloqalar va tushuncha almashinuvi bilan ham chambarchas bog'liq. Tarjimon nafaqat so'zlarni almashtiradi, balki ular orasidagi madaniy farqlarni, ijtimoiy va tarixiy kontekstlarni ham hisobga olishi kerak. Shunday qilib, tarjima jarayonida lingvistik va madaniy tafovutlar yuzaga keladi, bu esa tarjimadagi aniqlikni va to'g'rilikni ta'minlashni qiyinlashtiradi. Ushbu maqolada tarjima jarayonida uchraydigan lingvistik farqlar va madaniy tafovutlarni tahlil qilish va ularga qarshi kurashish uchun mavjud yondashuvlar haqida so'z yuritiladi.

Lingvistik tafovutlar — bu bir tildan boshqasiga o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan tilning tuzilishidagi farqlarni anglatadi. Bunday farqlar grammatik, semantik va fonetik jihatlardagi tafovutlarni o'z ichiga oladi. Lingvistik tafovutlar tarjima jarayonining eng murakkab jihatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi "present perfect" zamonini o'zbek tiliga tarjima qilishda, o'zbek tilida bunday grammatik kategoriya mavjud emas. Bunday holatda, tarjimon qo'shimcha izohlar kiritishi yoki kontekstni o'zgartirishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "She has eaten" jumlasini o'zbek tiliga "U yeydi" deb tarjima qilish mumkin, ammo bu tarjima zamonning xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi.

Semantik tafovutlar misolida, ingliz tilidagi "love" so'zini o'zbek tiliga tarjima qilishda bir nechta variantlar bo'lishi mumkin: "sevgi", "muhabbat", "ishq". Ushbu so'zlarning har biri o'ziga xos unsurlarga ega bo'lib, ularni kontekstdan kelib chiqqan holda tanlash talab qilinadi. O'zbek madaniyatida sevgi ko'pincha oilaviy va an'anaviy kontekstda ko'rsatiladi, ingliz tilida esa bu so'z ko'proq individualistik yondashuvni ifodalaydi. Tarjimon bu so'zlarning ma'nolarini aniq ifodalash uchun madaniy va lingvistik kontekstni chuqur anglash zarur. Bundan tashqari, so'zlar o'rtasidagi fonetik tafovutlar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi "r" tovushi o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushdir. Ingliz tilidagi "th" tovushi ko'plab tillarda, jumladan o'zbek tilida, mavjud emas.

Ba'zi hollarda, fonetik tafovutlar poliglottlar (bir nechta tillarni biluvchilar) orasida ham farq qiladi. Masalan, ruscha so'zlar ingliz va o'zbek tillarida boshqacha talaffuz qilinadi:

**Lingvistik tafovutlarni bartaraf etish uchun tarjimonlar turli yondashuvlardan foydalanadilar:**

Ekspansiya (ekspansion) — tarjimadagi ma'lumotni kengaytirish va qo'shimcha izohlar kiritish.

Substitutsiya — bir so'zni boshqa so'z bilan almashtirish.

Modifikatsiya — grammatik o'zgarishlar kiritish, lekin asosiy ma'noni saqlash.



# XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Tarjimonning madaniyatlararo bilimlari, tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarjima nafaqat til o'zgartirishni, balki madaniyatlarni bir-biriga moslashtirishni ham talab qiladi. Shuning uchun tarjimonlar nafaqat tilni yaxshi bilishlari kerak, balki boshqa madaniyatlarning an'analari, urf-odatlarini, shuningdek, tarixiy va ijtimoiy kontekstini ham chuqur o'rganishlari zarur. Har bir til o'z madaniyatining o'ziga xos qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini aks ettiradi. Ingliz tilidagi "Thanksgiving" bayrami o'zbek tilida bevosita tarjima qilinishi qiyin, chunki o'zbek madaniyatida bunday bayram mavjud emas. Shu sababli, tarjimon bu atamani o'zbek madaniyatiga moslashtirish uchun izohlar kiritishi yoki ekvivalent bayramni topishga harakat qilishi lozim.

Madaniyatlararo tafovutlarni hal qilishda interkultural tarjima (madaniyatlararo tarjima) yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar ikki madaniyatni chuqur o'rganishlari va ularning o'xshashlik va farqlarini tushunishlari zarur. Bu yondashuv tarjimaga aniqlik kiritadi va madaniy kontekstni to'g'ri aks ettiradi.

## **Madaniy tafovutlarni bartaraf etishning ba'zi usullari:**

1. Adaptatsiya — tarjimadagi madaniy atamalarni o'zbek madaniyatiga moslashtirish. Masalan, ingliz tilidagi "football" so'zini o'zbek tilida "futbol" deb tarjima qilish.

2. Izohli tarjima — madaniyatga xos atamalarni tushuntirish. Masalan, "Thanksgiving" bayrami o'rniga, tarjimon izohli qo'shimcha berishi mumkin: "Bu bayram Amerikaning qadimgi an'anasiga asoslangan va ular tomonidan qishloq xo'jaligi hosilini nishonlash sifatida nishonlanadi.

Madaniy tafovutlarni hal qilishda, ba'zan tarjimon madaniy qiymatlarni o'zgartirishga majbur bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "Christmas" bayramini o'zbek tiliga "Yangi yil" deb tarjima qilishning bir necha yondashuvlari mavjud, chunki o'zbek madaniyatida "Christmas" bayrami keng tarqalgan emas.

Globalizatsiya davrida turli xalqlar o'rtasidagi muloqot doimiy ravishda kengayib bormoqda. Bu jarayon tilni o'zgartirish va tarjima qilishni yanada muhimroq va murakkabroq qiladi. Turli madaniyatlar va tillar o'rtasida yuzaga keladigan tafovutlar, ayniqsa, til o'zgartirishda talqin qilishda noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Tarjimonlar, bu tafovutlarni to'g'ri aks ettirishga harakat qilishlari kerak, lekin ba'zan bu jarayon qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, Ingliz tilidagi "freedom" so'zi, asosan, individualistik madaniyatlarda, masalan, AQShda keng qo'llaniladi. O'zbek tilida esa "ozodlik" so'zi ko'proq jamiyat va kollektiv manfaatlarini aks ettiradi. Bu farq, tarjimonlar tomonidan e'tiborga olinishi kerak,



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

chunki so'zlar faqat bir tilning o'ziga xos ma'nosini anglatuvchi bo'lishi mumkin, lekin boshqa madaniyatda bu so'zning ma'nosi boshqacha bo'lishi mumkin.

Sun'iy intellektning rivojlanishi haqida to'xtalsak, u tarjima jarayonini tezlashtirishda va avtomatlashtirishda yordam beradi, lekin bu jarayon bilan bog'liq ba'zi dolzarb masalalar ham mavjud. Masalan, avtomatik tarjima tizimlari, hali ham lingvistik va madaniy tafovutlarni aniq tahlil qilishda cheklangan. Hozirgi kunda, Google Translate yoki boshqa mashina tarjima tizimlari, ba'zan madaniyatlararo tafovutlarni to'g'ri aks ettira olmaydi, chunki ular kontekstga bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni to'liq tushunishga qodir emas. Misol: Google Translate yordamida o'tkazilgan ba'zi tarjimalar, ayniqsa, humor yoki idiomatik iboralarni noto'g'ri talqin qilishda xatolikka yo'l qo'yishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "break a leg" iborasi "Omad tilayman!" deb tarjima qilinadi, ammo bu iboraning literal tarjimasi "oyog'ingni sindir!" bo'lib, bu kulgili va iroda bilan ishlatiladi, lekin mashina tarjimasi noto'g'ri talqin qilishi mumkin.

Tarjimonlarning madaniyatlararo bilimlari tarjimonning madaniyatlararo bilimlari, tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarjima nafaqat til o'zgartirishni, balki madaniyatlarni bir-biriga moslashtirishni ham talab qiladi. Shuning uchun tarjimonlar nafaqat tilni yaxshi bilishlari kerak, balki boshqa madaniyatlarning an'analari, urf-odatlari, shuningdek, tarixiy va ijtimoiy kontekstini ham chuqur o'rganishlari zarur.

Interkultural tarjima, madaniy tafovutlarni hal qilishda samarali usul sifatida ko'riladi. Gile (2009) interkultural tarjimani "madaniyatlararo aloqalar va nuqtai nazarlar o'rtasidagi farqlarni tushunishga qaratilgan tarjima metodologiyasi" deb ta'riflaydi. Bu yondashuvda tarjimon faqat so'zlarni emas, balki madaniy kontekstni, tarixiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga oladi. Misol uchun, ingliz tilidagi "customer service" iborasi o'zbek tiliga "mijozlarga xizmat ko'rsatish" deb tarjima qilinsa-da, uning madaniy konteksti ingliz madaniyatida xizmatni "kulgi" bilan taqdim etishni anglatadi, o'zbek madaniyatida esa xizmat ko'rsatish ko'proq jiddiy va rasmiy muhitda bo'ladi.

Tarjima jarayonidagi lingvistik va madaniy tafovutlar, globalizatsiya davrida muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar nafaqat tilni, balki madaniyatlarni ham hisobga olishlari zarur. Lingvistik farqlar va madaniy nomuvofiqliklarni hal qilishda interkultural yondashuvlar va yangi texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, tarjimonlar o'z bilimlarini doimiy ravishda rivojlantirib, madaniy tafovutlarni engishda samarali bo'lishlari kerak.



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
2. House, J. (2009). Translation: The Basics. Routledge.
3. Gile, D. (2009). Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. John Benjamins Publishing Company.
4. Qo'shqonov, Sh. (2009). Tarjimonlik san'ati: nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. Tursunov, Sh. (2011). Lingvistik tarjima. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.